XORIJIY DAVLATLARDA YOSHLAR HUQUQIY ONGINI RIVOJLANTIRISH TAJRIBALARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Baxtiyorova Shaxrizoda Sharof qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti 1-bosqich magstranti
Ilmiy rahbar: B.M. Qandov CHDPU dotsenti, f.f.f.d.(PhD)

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada xorijiy davlatlarda yoshlar huquqiy ongini rivojlantirish bo‘yicha shakllangan ilg‘or tajribalar kompleks tarzda tahlil qilingan. Jamiyat taraqqiyotida yosh avlodning huquqiy madaniyati va huquqiy ongining ahamiyati ortib borayotgan sharoitda mazkur masala dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada, huquqiy ong tushunchasining nazariy-metodologik asoslari yoritilib, uning tarkibiy elementlari – huquqiy bilim, huquqiy qadriyatlar, huquqiy munosabat va huquqiy xulq-atvor o‘zaro uyg‘unlikda ochib berilgan. Yana maqolada yoshlar huquqiy ongini rivojlantirishning xorijiy tajribalari va unga bog‘liq tadqiqotlar o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: huquqiy ong, yoshlar, huquqiy madaniyat, fuqarolik ta’limi, xorijiy tajriba, huquqiy tarbiya, targ‘ibot, huquqiy nigilizm, demokratiya, huquqiy davlat, interaktiv ta’lim, raqamli ta’lim, yoshlar siyosati, huquqiy bilim, ijtimoiy faollik, ta’lim tizimi.

Globallashuv jarayonlari kuchayib borayotgan hozirgi davrda jamiyatning barqaror rivojlanishi, demokratik qadriyatlarning qaror topishi va huquqiy davlat qurish jarayoni ko‘p jihatdan yosh avlodning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatiga bog‘liq. Yoshlar – bu jamiyatning strategik resursi bo‘lib, ularning huquqiy savodxonligi, qonunlarga hurmati va fuqarolik pozitsiyasi mamlakat kelajagini belgilaydi.

Shu nuqtai nazardan, xorijiy davlatlarda yoshlar huquqiy ongini rivojlantirish bo‘yicha shakllangan ilg‘or tajribalarni o‘rganish va tahlil qilish alohida ahamiyatga ega. Rivojlangan davlatlar ushbu sohada kompleks yondashuvni qo‘llab, ta’lim tizimi, ommaviy axborot vositalari, raqamli texnologiyalar va jamoat institutlarini uyg‘unlashtirgan holda samarali mexanizmlarni ishlab chiqqan. Biz ushbu maqolada AQSH, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Finlyandiya kabi davlatlar misolida yoshlar huquqiy ongini rivojlantirishning institutsional, pedagogik va innovatsion usullari tahlil qilishga harakat qilamiz.

Birinchi navbatda e’tiborni Yoshlar huquqiy ongining mazmuni va ahamiyatiga qaratadigan bo‘lsak, huquqiy ong – bu shaxsning huquq va majburiyatlar, qonun ustuvorligi, adolat va huquqiy qadriyatlar haqidagi bilimlari, tasavvurlari va munosabatlarini ifoda etuvchi ijtimoiy ong shaklidir. Yoshlar huquqiy ongi esa ularning fuqarolik pozitsiyasi, ijtimoiy faolligi va huquqiy xulq-atvorida namoyon bo‘ladi.

Huquqiy ong – ijtimoiy ongning muhim shakllaridan biri bo‘lib, u shaxs va jamiyatning huquqiy voqelikka bo‘lgan munosabatini, huquqiy bilimlarini, qadriyatlarini va xulq-atvorini ifoda etadi. Yoshlar huquqiy ongi esa jamiyatning kelajak taraqqiyotiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi omil sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Huquqiy ong ijtimoiy ongning muhim shakli bo‘lib, u shaxsning huquqiy voqelikka bo‘lgan munosabatini, huquqiy bilimlari va qadriyatlarini ifoda etadi. Ilmiy adabiyotlarda huquqiy ong tushunchasi turlicha talqin qilingan. Masalan, S.S. Alekseev huquqiy ongni “huquqiy voqelikni inson ongida aks ettiruvchi va huquqiy xulq-atvorni tartibga soluvchi g‘oyalar, qarashlar va his-tuyg‘ular tizimi” sifatida ta’riflaydi. Ilmiy adabiyotlarda ushbu tushuncha keng yoritilgan bo‘lib, S.S. Alekseev huquqiy ongni huquqiy voqelikning inson ongidagi in’ikosi sifatida tavsiflaydi[1]. V.N. Kudryavsev esa huquqiy ongni shaxsning huquqiy normalarga munosabati va ularni bajarishga tayyorligi bilan bog‘laydi. Yana uning fikricha, huquqiy ong shaxsning huquqiy normalarga munosabati va ularga amal qilish darajasini belgilaydi[2]. Bu esa yoshlarda huquqiy ongni shakllantirish nafaqat nazariy bilim berish, balki amaliy xulq-atvorni rivojlantirishni ham talab qilishini ko‘rsatadi.

Huquqiy ongning asosiy komponentlari: huquqiy bilimlar; huquqiy qadriyatlar; huquqiy munosabat; huquqiy xulq-atvor.

Yoshlarda huquqiy ongning yuqori darajada shakllanishi: qonunbuzarliklarning kamayishiga? ijtimoiy barqarorlikning ta’minlanishiga? demokratik institutlarning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Bugungi kunda har qanday jamiyatning taraqqiyoti, barqarorligi va demokratik tamoyillar asosida rivojlanishi, avvalo, uning a’zolari - fuqarolarining huquqiy ong va huquqiy madaniyat darajasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Huquqiy ong va huquqiy madaniyat insonlarning huquqiy bilimga, qonunlarga, jamiyatdagi huquqiy tartibga va adolatli munosabatlarga bo‘lgan qarashlarini, ularni amalda qo‘llay olish ko‘nikmalarini ifodalaydi. Yoshlarning huquqiy ongini rivojlantirish ko‘plab mamlakatlarda davlat siyosati darajasiga aylantirilgan. Biz bu jarayon bilan bog‘liq turli xorijiy tajribalarni ko‘rib chiqishimiz mumkin.

G‘arb davlatlarida “case-based learning”, “clinical legal education” keng qo‘llanadi, amaliyotga yo‘naltirilgan dasturlar va amaliy komponentlarni kuchaytirish ham yo‘lga qo‘yilgan.Masalan, huquqiy klinikalar, talabalarning sud va advokatlik amaliyotida ishtiroki, stajirovkalar, case-law tahlili. Moot court musobaqalari, simulyatsiya sud majlislarini joriy qilish shular jumlasidandir.

“Case-based learning” - bu nazariy tushunchalarni muhokama qilish, muammolarni hal qilish va amaliy qo‘llashni rag‘batlantirish uchun holatlardan foydalanadigan pedagogik yondashuv. Bu usul talabalarni murakkab masalalarni tahlil qilishga, tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga va o‘z bilimlarini kontekstli tarzda qo‘llashga undaydi. “Case-based-learning”yondashuvi nazariya va amaliyot o‘rtasidagi tafovutni bartaraf etishda samaradorligi tufayli biznes, huquq, tibbiyot va ijtimoiy fanlarni o‘z ichiga olgan turli fanlarda keng qo‘llaniladi[3].

“Clinical legal education” - bu ko‘pincha universitet dasturlari orqali amalga oshiriladigan ilg‘or ta’lim mafkurasi va pedagogikasi. Klinikalar interaktiv, amaliy o‘quv xonalari bo‘lib, ular o‘rganish orqali o‘rganishni targ‘ib qiladi. Tarixan CLE Qo‘shma Shtatlarda aniq ijtimoiy adolat kun tartibining bir qismi sifatida va birinchi navbatda kambag‘allar uchun yuridik xizmatlarning yetishmasligiga javoban rivojlangan. Bugungi kunda CLE dasturlari haqiqiy mijozlar bilan o‘zaro munosabatlarni o‘z ichiga olgan hayotiy holatlar yoki klinik tajribaga asoslangan sinf simulyatsiyasi darslarini taklif etadi. CLE dasturlari tajribali huquq mutaxassislari va yuridik amaliyotchilar nazorati ostida olib boriladi[4]. Universitetlarni va yuridik fakultetlarni xalqaro akkreditatsiya organlariga a’zo qilish (masalan, IAU, American Bar Association, European Quality Assurance Register) tajribasi ham huquqiy bilimni oshirishga xizmat qiladi. Bolonya ta’lim tizimida huquqiy ta’limdagi axloqiy-etik komponent muhim rol o‘ynaydi.Inson huquqlari, kasb etikasi, fuqarolik ongini shakllantirish darslarini majburiy qilish, huquqiy yozuv va til darslarini kengaytirish Bolonya tajribasining asosini tashkil etadi.

Huquqiy didaktika va pedagogika (faol o‘rgatish, case-study, moot court, klinik amaliyot, interdisipliner yondashuv) uyg‘unligi Yevropa tajribasida keng qo‘llaniladi. AvroPress va Yevropa Huquqiy Ta’lim Assotsiatsiyalari (European Network for Clinical Legal Education va h.k.) tashkil etilishi huquqiy kasb etikasini o‘rgatish, huquqiy madaniyat, inson huquqlari tizimini rivojlantirishga xizmat qiladi[5]. Shuningdek, JUHED (Joint Universities for Human Rights and European Law) kabi tashabbuslar ham faoliyat ko‘rsatadi. Davlat fuqarolik xizmati sohasi uchun tashkiliy-huquqiy bazani mustahkamlashni uzoq yillar davomida keng yo‘lga qo‘ygan Xitoy Xalq Respublikasining yoshlar huquqiy ongini rivojlantirishdagi tajribasi ham ahamiyatlidir. “Xitoy davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi Qonunning 2-moddasida “davlat xizmatchisi – bu jamoat va davlat majburiyatlarini qonunga muvofiq amalga oshiradigan, davlat ma’muriyati kadrlari safiga kiritilgan va davlat moliyasi hisobidan oylik maosh va to‘lovlar oluvchi xodim” ekanligi belgilab qo‘yilgan. Xitoy tajribasida har qanday kasb egasidan ya’ni davlat xizmatlariga qabul qilinayotgan xodimdan huquqiy bilimga ega bo‘lish talab qilinadi[6].

O‘zbekiston yurisprudensiya mutaxassisligi bo‘yicha kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash borasida Yaponiya, Germaniya, Buyuk Britaniya va Xitoy kabi davlatlarning tajribalari o‘rganilyapti.Bu haqda O‘zbekistonning Xitoydagi elchixonasi tashabbuskorligida Chunsin shahridagi Xitoy Janubiy – G‘arbiy siyosiy fanlar va huquq universitetida bo‘lib o‘tgan davra suhbatida qayd etildi. Xitoy tomoni suhbat davomida Toshkent Davlat yuridik universiteti bilan Hamkorlik to‘g‘risida memorandum imzolash va uning dorasida mazkur universitetlar qoshida Xitoy va O‘zbekiston huquqini o‘rganish markazlarini tashkil etishga tayyor ekanligini bildirdi. Memorandumning imzolanishi kelajakda o‘zaro hamkorlikda ilmiy-tadqiqot loyihalarini amalga oshirish, qo‘shma ta’lim va ilmiy dasturlarni yo‘lga qo‘yish, professor-o‘qituvchilar va xodimlar uchun malaka oshirish va amaliyot o‘tash dasturlarida ishtirok etish uchun keng imkoniyatlar yaratishi, shuningdek, talabalar almashuvini yo‘lga qo‘yish, hamkorlikda turli tanlovlar, konferensiya, seminar va davra suhbatlarini o‘tkazish uchun huquqiy asos bo‘lib xizmat qilishi ta’kidlandi.

Huquqiy ta’lim tizimini xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirish bugungi globallashuv sharoitida davlatlarning huquqiy siyosati va ta’lim strategiyasining eng muhim yo‘nalishlaridan biridir. Chunki xalqaro tajriba nafaqat o‘quv dasturlarini boyitadi, balki yuristlarning kasbiy malakasini oshirish, inson huquqlari va qonun ustuvorligi prinsiplarini chuqurroq anglash imkonini beradi. O‘zbekiston ham so‘nggi yillarda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, huquqiy sohada xalqaro hamkorlikni kuchaytirish va oliy ta’lim muassasalarida o‘quv rejalarni qayta ko‘rib chiqish orqali ushbu jarayonga faol qo‘shilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, xorijiy davlatlarda yoshlar huquqiy ongini rivojlantirish tajribalari ko‘rsatadiki, bu jarayon kompleks va tizimli yondashuvni talab qiladi. Ta’lim, tarbiya, texnologiya va jamoatchilik ishtirokini uyg‘unlashtirish orqali yuqori samaraga erishish mumkin. Yoshlarning huquqiy ongini yuksaltirish nafaqat qonunbuzarliklarning oldini oladi, balki demokratik jamiyat qurishning mustahkam poydevorini yaratadi. Shu bois, ilg‘or xorijiy tajribalarni milliy sharoitga moslashtirgan holda joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Alekseev S.S. Teoriya prava. – Moskva: BEK, 1995.
2. Kudryavsev V.N. Pravovoe povedenie: norma i patologiya. – Moskva: Nauka, 1982.
3. Michael Simkovic, Frank McIntyre. The Economic Value of a Law Degree // Journal of Legal Studies. 43 (2). 2014. – pp.249-289.
4. Dorsey D., Jr. Ellis, Legal Education: A Perspective on the Last 130 Years of American Legal Training, 6 Wash. U.J.L., Pol’y 157, 166 (2001).
5. Elman B. A cultural history of civil examinations in late imperial China. Berkeley and Los Angeles: University of California Press. 2000.
6. Mark Cartwright. The Civil Service Examinations of Imperial China. https://www.worldhistory.org/article/1335/the-civil-service-examinations-ofimperial-china.
7. Marchenko M.N. Teoriya gosudarstva i prava. – M.: Zersalo, 2004.
8. Nersesyans V.S. Obщaya teoriya prava i gosudarstva. – M.: Norma, 2001.
9. Abdullaev O. Huquqiy madaniyat nazariyasi. – Toshkent: 2019.
10. Fayziyev F. Konstitutsiya–inson huquqlari kafolati // Models and methods for increasing the efficiency of innovative research. №.44. – T.4. 2025. – S.392- 395.